

Men tez-tez Toshkentga kelib turaman. Har kelganimda u menga o'zgacha, yangi bir shaharday tuyuladi. Har kelganimda hali men bilmagan, yoki bila olmagan go'zalligini ko'z-ko'z qiladi, saxiy bag'rini keng ochib, olis yo'ldan kelgan farzandini quchog'iga olayotgan otaday, meni mehr va tabassum bilan qarshilaydi. Bu mehr va tabassumni men olov taftli quyoshning serbag daraxtlar orasidan tushib turgan nayza nurlarida, iliq shabada o'ynatib turgan kosadek-kosadek atirgullarning yoqimli hidlarida his qilaman. Qanchalik zarur bo'lmasin, ishimni tashlab, kamalak tus skameykalarda bir daqiqa bo'lsa ham o'tirgim, xuddi shunday kamalak tus yo'lovchilarga qarab xayol surgim keladi. Ko'pincha shunday qilaman ham. Xiyobondagi bir-biriga tutash uch favvora yoniga o'tirib, atrofni tomosha qilaman. Xiyobon kunduz ham, tun ham tinch, osoyishta. Shu yerda hamma narsa sehrli olam og'ushida. Daraxtlarnig ko'pligi yo xiyobonning o'ziga xos fizilatimi - yo'lovchilar shu yerga kirganda yarim ovozdga gaplashadilar, yarim ovozdga kuladilar, boshqa ko'chalarda quloqni kar qiluvchi ignaposhna tuflilarning taq-tuqi bu yerda eshitilmaydi. Eshitilsa ham pastki pardalardagi musiqa sadosidek sehrli, kishini allalovchi yoqimli kuydek eshitiladi. Favvora suvlarining bir ohangdagi jildirashi xayolga cho'mdiradi. Ko'chalarda mashinalarning keti uzilmaydi: biri yog'och tashigan, biri g'isht, biri tuproq. Radio ertadan-kechgacha tinmay quruvchilarni madh etadi. Qurilish shovqini, tashvishi hammaning boshida, ham-maning uyi, idorasida... Lekin xiyobon tinch, hamma narsa sehrli olam og'ushida. Xiyobonning o'ziga xos fazilatimi yo ulkan chodirlardek tizilib turgan bahaybat daraxtlarning ko'pligidanmi - ko'chalarning g'ala-g'ovuri bu yerga mutlaqo begona, odamlarning yurishi ham boshqachab "B" og'ir, serviqor. Aftidan, shu yerga qadam qo'yish bilan hamma shahar tashvishini, o'z tashvishini unutadi. Sersoya daraxtlar shoxlarida bir-birlariga mahliyo bo'lib sayragan qushlar, barglarning shitir-shitiri, ming xil shakl, ming xil rangdagi tuflilarning bir ohangdagi yengil taq-tuqi hammani o'zga olamga, sokin hayot qo'yniga olib kiradi. Shu odamlarga qarab, shaharning kelajagini o'ylayman. Ular ko'hna Samarqand obro' va dovrug'i, Istanbul go'zalligiga teng shaharga mansub deyman. Shunday bo'lishiga ishonaman ham. Chunki ularning har bir qadamida qat'iyat, har bir so'zida g'ayrat sezilib turadi. Shulardan birini taniyman. Uning ovozi ba'zi-ba'zida xiyobonda eshitilib koladi, u gul sotadi. Xiyobonning chap biqinidagi kichkina, xashamdor gul do'konida ishlaydi. Ismi Go'zal. Lekin ismi jismiga monand tushmagan. U bilan men o'tgan yili tanishganman.

Kech kuz edi, qaynarbuloqlik do'stim "Pomir tog'larining seysmik prognozi" degan mavzuda dissertatsiya yoqlay-digan bo'lib qoldi. Mavzuni qarang?! Qurama tog'larini o'rganib qo'ya qolsa nima qilar ekan?! Agar shunday qilganda, Toshkent kulfati ancha kamaygan bo'larmidi? Qachon yer qimirlashini odamlar oldindan bilib, tayyorgarligini ko'rib qo'yarmidi?! Hay, mayli. O'shanda Qo'qondan keldim. Qancha qidirmay, hech qaerdan bir dasta gul topolmadim. Kimdir shu gul do'konni eslatdi, kirdim. Peshtaxta ortida yoshi o'tib qolgan bir qiz berilib kitob o'qib o'tirardi. Kirganimni sezmadim. Atrofiga qaradim. Katta-kichik tuvaklarda har xil gullar... Lekin bittasi ham guldasta bo'ladigan emas. Nima qilish kerak. Qaytib ketmoqchi bo'lib, eshikka yuzlandim. Keyin qandaydir umidda ortimga o'girilib, peshtaxtaga tirsagimni qo'ydim.

- Yaxshi qiz...

Ammo qiz meni eshitmadi. Yangi varaqni ochib, jilmaydi-da, yana o'qishga tushib ketdi. Egilib kitobning muqovasiga qaradim: Turgenev: "Bahor toshqini". Shuni ko'rishim bilan qiz erga tegmagan bo'lsa kerak, degan fikr miyamga keldi. Lekin buning menga mutlaqo qizig'i yo'qligini bilganimdan, sekin yo'taldim. Qiz yana eshitmadi. Kichkina yuziga adashib omonatgina yopishtirib qo'yilgan katta bukri burnini sho'lq etib tortdi-da, o'qishda davom etdi.

- Qiziq kitob ekan-a? - dedim ovozimni ozgina ko'tarib.

Qiz yeb qo'ygudek bo'lib o'girildi va dag'al ovoz bilan so'radi:

- Sizga nima kerak?

Bunday muomaladan jahlim chiqsa ham, o'zimni tutishga harakat qildim. Shunday qilmasam niyatimga yetmasligim tabiiy.

- Singlim, menga gul kerak edi...

- Ana gul, olavering! - qiz tuvaklarga ishora qilib, yana kitobga tikildi.

- Bunaqa gul emas, menga guldasta kerak...

- Guldasta yo'q, - cho'rt kesdi qiz bosh ko'tarmay. Nima qilish kerak? Uylanib qoldim. Shunda miyamga lop etib bir fikr keldi.

Agar shu do'kondan gulsiz ketishimni bilsam, bu qo'pol qizni muomalaga o'rgatib ketaman. Do'konga it kirdimi, odam kirdimi, unga baribirga o'xshaydi. Lekin avval iltimos qilib ko'rish kerak. Peshtaxtaga suyanib, sekin gap boshladim.

- Turgenevning "Asya"si ham juda o'qishli...

- O'qiganmisiz? - qiz yalt etib menga o'girildi.

- O'qimasam, shunday deymanmi?

- Bu ham juda yaxshi ekan. Tashlagim kelmayapti.

- Ko'rinib turibdi. Odam kirganini ham sezmadigiz.

- Kechirasiz, - qiz uyalinqirab jilmaydi-da, kitobni yopib, o'rnidan turdi. - Keling, nima kerak edi?

- Gul kerak, bitta guldasta...

- Guldasta? - qiz hayron bo'lib menga tikildi. - Sob bo'lgan-ku...

- Bitta topib bering. Kichkina bo'lsa ham mayli!..

Qiz o'ylanib qoldi. Uning ko'zlarigina chiroyli edi.

Yirik, qo'ng'ir, sal g'amginroq... Bu ko'zlarga tikilib, uzun, ingichka bo'yni so'lib, guli to'kilgan na'matakni eslatuvchi qalin lablarini, chekka suyaklari bo'rtib chiqqan yuzini ko'rmagandek bo'lib ketdim. Uning butun go'zalligi, kishi e'tiborini beixtiyor tortadagina issikligi shu o'ychan, sal g'amgin ko'zlarida edi. Ota-onasi, nazarimda, shu ko'zlarga qarab, ismini Go'zal qo'ygan bo'lsa kerak. Lekin buni men keyinchalik bildim. O'shanda esa bu hakda mutlaqo o'ylamagan edim, fikr-zikrim guldastada va iltijo bilan qizga tikilib turar edim. Qiz jim edi.

- O'rtog'im bugun dissertatsiya yoqlaydi. Qo'qondan keldim. Bir amallab bitta...

- To'xtang-chi! - dedi qiz gapimni bo'lib. - Men hozir...

U ichkariga kirib ketdi. Ko'nglim tinchidi. Topib chiqadi, o'yladim o'zimcha. Chindan ham ko'p o'tmay, qiz kichkina bir guldasta ko'tarib chiqdi.

- Kechirasiz, tuzzugiga ilojim yo'q.

- Bundan yaxshisi bo'lmaydi! - dedim topilganiga shukur qilib. - Rahmat!

Keyin guldastani apil-tapil gazetaga o'rab, do'kondan chiqdim. Qandayligiga qaraganim ham yo'q.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Go'zalga yana ishim tushib qoldi. Endi gulchambar deb oldiga kirdim. Keyinchalik Toshkentga nima ish bilan tushmay, xiyobondan o'tsam, albatta u bilan ko'rishadigan, birpas u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiradigan bo'ldim.

Bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish, deyishadi. Biz xam ancha-muncha qalinlashib qoldik.

Go'zal asli qo'qonlik ekan. Otasi frontga ketganda u olti yoshli qizcha ekan, yolg'iz farzand ekan. Maktabga kirganda otasidan qoraxat kelibdi. Onasi darrov aza tutib, yig'i-sig'i qilibdi. Hatto mahallaga osh beribdi. Bunday ochiqqo'lliqdan ba'zilar xursand bo'lsa, ba'zilar kuyunibdi. Bir kampir ko'chada Go'zalning boshini silab:

- Ishqilib, sen bechora tinch bo'lgan, Yeganing osh bo'lsin! - debdi.

Bu gapning ma'nosiga Go'zal avval tushunmabdi. Bir kuni maktabdan kelsa, ravonda shop mo'ylov bir kishi yonboshlab yotganini ko'ribdi. Onasi uning oyoqlarini uqalab o'tirgan ekan. Ikkalovi ham qizni ko'rishmabdi. Go'zal nima qilishini bilmay ostona oldida turib qolibdi. Bir mahal begona kishi onasining bilagidan ushlab, bag'riga tortibdi. Onasi xaxolab kulibdi. Go'zal nima qilishayotganini yaxshi anglamasa ham, yomon voqea sodir bo'layotganligiga aqli yetibdi. O'pkasi to'lib:

- Aya! - deb baqirib yuboribdi.

Onasi sapchib o'rnidan turibdi. Qizini ko'rib, quloqlarigacha qizarib ketibdi. Keyin o'ziga kelib, lablari oqara boshlabdi. Jahli chiqsa, doim shunday bo'lar ekan.

- Voy! Kela qoldingmi darrov? - debdi qizi tomon yurib. - Chiq, amaking bilan so'rash. Senga konfet olib kelibdilar.

Go'zal beixtiyor begona kishiga qarabdi. U yonboshlaganicha ko'zlarini olaytirib o'tirar ekan. Go'zal qo'rqib ketibdi. O'zini tutolmay ho'ngrab yig'lab yuboribdi-da, ko'chaga otilibdi.

- Hoy qiz, hoy juvonmarg! Qayoqqa! - deb qolaveribdi onasi ortidan.

Shu kuni Go'zal qosh qorayguncha ko'chama-ko'cha sanqibdi, yig'labdi. Qorni ochib uyiga qaytibdi, ammo kirmabdi. Ravondagi manzara, begona erkak ko'z oldiga kelib, kirgisi kelmabdi. Eshikni qiya ochib, hovliga mo'ralabdi. Hech kim ko'rinmabdi. Oyoq uchida yo'lakka kirib, uyga qarabdi. Uyda ham hech kim ko'rinmabdi. Ohista yurib, deraza tagiga kelibdi. Kelibdi-yu, gilam ustida yonma-yon o'tirgan begona kishi bilan onasini ko'ribdi. Ular to'rdagi devorga qarab, nimalarnidir gaplashishar ekan. Bir mahal onasi uh tortibdi-da:

- Nima bo'lsa ham o'gay o'gayligini qilarkan-da. Otasidan qoraxat keldi-yu, o'zgardi-qo'ydi, - debdi.

- Qo'ying, shuni ham tashvishini qilasizmi! - debdi shop mo'ylov kishi. - Endi o'zimizning bolamiz bo'ladi.

U shunday deb o'rnidan turibdi-da, to'rga borib, devordagi katta, tilla suvi yuritilgan ramkadagi suratni olib, keyin derazaga yaqinlashib, hovliga uloqtiribdi. Suratning oynasi chil-chil bo'libdi. Go'zal xo'rliigi kelib, yig'lab yuboribdi. Lekin ovoq chiqarmabdi. Surat - otasining surati ekan. Uni yerdan olib, mahkam bag'riga bosibdi-da, qorong'i tushganiga qaramay, yana ko'chaga chiqib ketibdi. Shu ketganicha uyga qaytib bormabdi. Otasining suratini bag'-riga bosganicha birovga yalinib, birovni aldab, poezdga minibdi, Yetti kunmi, sakkiz kun deganda, ne-ne azob-mashaqqat bilan Toshkentga kelib tushibdi. Begona shahar, begona odamlar uni yomon cho'chitibdi. Lekin bularning hammasi otasining yilini kutmagan o'gay ona, uning shop mo'ylov o'ynashi oldida holva edi. Go'zal ko'chada boshini silab, unga achingan kampirning tashvishiga endi tushunibdi. Demak, u o'gay! O'gay nimaligini u yaxshi bilardi. Lekin o'zi shu ahvolga tushishini xayoliga ham keltirmagan edi. Otasi sir tutgan, onasi esa yo cho'chigan yo lozim topmagan.

Vokzalda Go'zal tumonat odam, yig'i-sig'i, qiy-chuv ichida qayoqqa borishini, nima qilishini bilmay, tramvay yo'lidan ketaveribdi.

Yurib-yurib Gospital bozoriga kelib qolibdi. Shunda u qorni ochligini, nihoyatda cho'llaganini eslabdi. Lekin bir tiyin puli yo'q. Nima qilish kerak? Kunduz-ku bir amallab o'tar, kechasi nima qiladi? Qayoqqa boradi? Shu xayollar bilan bozorga kiribdi. Bu yerda hamma narsa bor. Lekin bir burda nonni qaerdan oladi, kim beradi? U meva rastasidan o'tayotib, kichkina bolaning: "Kimga non! Issiq non!" - degan ovozini eshitib qolibdi. Qidirib uni topibdi. O'zi tengi bola ekan. Qo'lida kir dasturxoniga o'rog'liq uy noni. Go'zal yugurib uning oldiga boribdi. Lekin nima qila olardi! So'rasinmi? Yalinsinmi? Bola unga parvo qilmay rastama-rasta aylanardi. Go'zal ortidan yutinib yuraveribdi. Xaridor qo'lida non ko'rganida, ichaklari buralib, ko'z oldi qorong'ilashib ketayotgandek bo'lar ekan.

Oxiri chiday olmabdi.

- Ey bola, bir burda noningdan ber! - debdi beixtiyor qo'lini cho'zib.

- Bor, bor! Tuyog'ingni shiqillat! - debdi bola. - Sindirib bo'ladimi bu nonni?! Necha pul turishini bilasanmi?!

Go'zal indamabdi. Bechora bitta non necha pul turishini qaerdan bilsin? Lekin nimadandir umidvor bo'lib shu yuziga sepkil toshgan bolaning ketidan qolmabdi. Bola esa tinmasdan: "Kimga non! Issiq non! Jizzali non!", deb qichqirar ekan. Nihoyat, Go'zal charchabdi. Rastaning ustuniga suyanib, ko'zlarini yumibdi. Bir mahal kimdir jonholatda qichqirib yuboribdi. Go'zal ko'zini ochsa, bir militsioner non sotuvchi bolani sudrab ketayotgan emish. Bola chinqirar, militsionerni tepar va tishlar ekan. Shu payt bolaning qo'ltig'idan dasturxon tushib, kulchalar sochilib ketibdi. Tomosha qilib turganlar xuddi shuni kutib turishgandek, dumalab ketayotgan kulchalarga o'zlarini otishibdi. Bola esa dahshat ichida:

- Jo'ra aka, amakijon, endi sotmayman! Qo'yib yuboring! - deb qichqirarmish.

Go'zal o'ylab o'tirmay, odamlarni yorib o'tib, nonlarni dasturxoniga o'ray boshlabdi. Lekin atigi to'rttami, beshta nonni olib ulguribdi. Ular ham singan, oyoq ostida ezilganlari ekan. Dasturxonni tezlik bilan bag'riga bosibdi-da, militsioner ketidan ketibdi. Bozorning burchagida mi-litsiya budkasi bor ekan. Militsioner bolani shu yerga olib kiribdi. Go'zal eshik tagida qolibdi. Bir soatlar chamasi vaqt o'tgach, bola chiqibdi. Ikki ko'zi, qovoqlari shishib ketibdi bechoraning.

- Ey bola! Noningni ol, - debdi Go'zal uning qarshisiga borib.

Bola shoshib dasturxonni olibdi. Nonni sanabdi.

- O'nta oldiribman, - debdi jilmayishga intilib, keyin uvvos solib yig'lab yuboribdi.

- Qo'y, yig'lama, - yupatibdi Go'zal. - O'zingni qo'yib yuborishdi, shunga suyunsang-chi!

Bola indamabdi. Keyin ikkalovi bozordan chiqishibdi. Go'zal qayoqqa borishini bilmay, tramvay yo'lga yetishganda, to'xtabdi.

- Ha, - debdi bola. - Yurmaysanmi?

- Qayoqqa?

- Qayoqqa bo'lardi! Biznikiga-da! Yur. Non yeysanmi? Ma!

Bola bitta ezilgan nonni Go'zalga uzatibdi.

- Tez yema. Tiqilib qoladi.

Shu kuni Go'zal shu sepkil yuzli bola - Mirazizlarnikida qolibdi. Onasi juda yaxshi xotin ekan. Darhol issiq ovqat beribdi, yuvintiribdi. Mana, yigirma uch yildan buyon shu uyda. Shu uyning achchig'i, chuchugiga sherik bo'lib yashab kelayotgan ekan.

- Ikki yildan beri shu do'konda ishlayman. Oyimlarning o'rnilarida ishlayapman. U kishi pensiyaga chiqqanlar. Lekin ketmoqchiman... - dedi bir kuni, gap orasida Go'zal.

- Nega?  
- Qizlar uyaltirishyapti.  
Go'zal jilmayishga harakat qilib, xo'rsindi. Men hech narsaga tushunmadim. Keyin so'rashga majbur bo'ldim.  
- Qari qiz bo'lib qolding, deyishyapti. Hech kimga yoqmasam, nima qilay?  
Go'zal iltijo bilan menga tikildi. Uning saxiy ko'zlarida yosh paydo bo'ldi.  
- Qo'ying, xafa bo'lmang, - dedim rahmim kelib. - Baxt erta turmush qurishda emas-ku!? Mening bir tanishim bor, qirq beshga kirganda turmush qurgan.  
- Rostdanmi? - bolalardek sevinib so'radi Go'zal.  
- Ha. Mana, shunday yoningizda ishlaydi. Universitetda.  
- Hech kim ta'na qilmaganmikin ularni?  
- Yaxshi odam ta'na qilmaydi...  
- To'rri aytdingiz... Innaykeyin... Yaxshi ko'rmasdan turmush qurib bo'ladimi?! Oyim shunday deydilar.  
- Oyingiz tushungan odam ekan.  
- Juda ham. Toshkentga kelib qolganimdan mingdan-ming roziman...  
Birinchi yer qimirlagan kuni men yana Toshkentga kelgan edim. Vayron bo'lgan ko'chalar, uylarni ko'rib, ko'ngilni yozish uchun gul do'koniga kirdim. Go'zal sevinib ketdi.  
- Kelganingiz juda yaxshi bo'ldi.  
- Uy tinchmi? - so'radim gapini bo'lib.  
- Qayoqda! Bir tomoni ag'anib tushdi.  
U bu gapni shunday xursandchilik bilan aytdiki, hayron qoladim.  
- Shunga xursandmisiz? - dedim kinoya bilan.  
- To'y qilyapmiz!..  
- To'y!  
- Ha. Kelasi shanba kuni. Ertaga ZAGSga boramiz. Birga boring, iltimos.  
Go'zal shoshib, og'zi to'lib gapirardi. Uning quvonchi; menga ham o'tdi. Zavq bilan unga qaradim. Shodlik, baxtli kelajak orzusi odamni qanchalik o'zgartib yuborishi mumkinligini shunda o'z ko'zim bilan ko'rdim. Go'zal chakkalari, yassi peshonasidagi ajinlari yo'qolib, yuziga qon yugurib, to'lishib, ochilgan atirgulni eslatardi. Eng muhimi - ko'zlaridagi g'amginlik alomatlaridan asar ham qolmagan edi.  
- Tabriklayman, - dedim, issiq qo'lini samimiy siqib.  
- Rahmat. Borasizmi ertaga?  
- O'rtoqlaringiz borsa yaxshi emasmi?  
Go'zal javob bermadi.  
- Agar siz borsangiz... dadamlarni ko'rgandek bo'laman, - dedi oxiri eshitilar-eshitilmas.  
- Xo'p, boraman, - dedim.  
Ertasiga ertalab, yaxshiroq kiyinib gul do'koniga keldim. Do'kon liq to'la odam edi. Go'zal meni ko'rishi bilan yugurib oldimga keldi. Egnida oq krepdeshin ko'ylak, bitta qilib o'rtilgan qalin sochi beliga tushib turardi.  
- Tanishing! - dedi qo'limdan tortib va peshtaxtaga suyanib turgan ikkita yigit yoniga boshlab bordi. - Miraziz! Bu yigit esa kuyovingiz, Komil.  
Biz so'rashdik. Kuyov xushbichimgina, yaxshi kiyingan, kulcha yuz yigit ekan. Universitetda sirtidan o'qirkan, lekin qaerda ishlashini aytmadi, men ham botinib so'ramadim.  
Ko'p o'tmay yo'lga tushdik. Go'zal kuyov bilan meni qo'ltiqlab olgan edi. Ikki gapning birida ko'chani boshiga ko'tarib kulardi. Unga qo'shilib biz ham kulardik. Yo'lovchilar hayron bo'lib bizni kuzatib qolishardi. Biz esa, parvo qilmasdik. Qulog'imiz ostida uy buzayotgan ekskavatorlarning gumburi, samosvallarning shovqini emas, Go'zalning kulgisi jaranglab turardi.  
ZAGSga kirdik. Kelin bilan kuyov hujjatni to'lata boshlashdi.  
- Go'zal, adresingiz qanaqa edi? - so'radi bir mahal kuyov.  
Go'zal aytdi. Ko'p o'tmay bir haftadan so'ng kelish sharti bilan ko'chaga chiqdik. Kelin bilan kuyovni tabrikladik. Qomil hammamizni restoranga taklif qildi. Bu taklifdan Go'zal ilgaridan xabardor bo'lsa ham "ura" deb qarsak chalib yubordi.  
- Shampanskoe bo'ladimi? Kavob-chi?  
- Hammasi bo'ladi, - dedi Komil kulib.  
- Morojenoe hammi?  
- Bo'lmasam-chi!  
Go'zal xuddi yosh bolaga o'xshardi. Komil bilan Mirazizning qo'llariga osilib sakrardi va xaxolab kulardi. Bir mahal nimadir esiga tushdi shekilli to'xtadi.  
- Boya adresni nega so'radingiz, Komil aka?  
Komil g'alati bo'lib ketdi, keyin jilmaydi.  
- Siznikida turaman.  
- Sizlarniki-chi? Bizlarniki buzilib ketdi-ku!  
- Shuning uchun ham sizlarnikida turamiz, - dedi xotirjamlik bilan Komil.  
- Nega? - hayron bo'ldi Go'zal.  
Biz ham hech narsaga tushunmay, Komilga tikilib qolgan edik. Kechagina Go'zal Komillarning katta uyi borligini, u o'sha uyga ko'chib borishini, buning ustiga, bu uy zarar ko'rmaganini aytgan edi.  
- Nega? - yana so'radi Go'zal.  
Komil, shuni ham tushunmaydi, degandek bizga qarab qo'ydi-da, dedi:  
- Ortiqcha uy berishsa, ziyon qiladimi?  
Go'zal turgan joyida qotib qoldi. Mening ham yuragimni nimadir timdalab ketgandek bo'ldi. Mirazizga qaradim. U boshini egganicha jim turardi. Shu payt nimadir sharaq etdi. Yalt etib Go'zalga qaradim. Uning rangi dokadek oqarib ketgan edi. Komil esa yuzini berkitib olib, atrofga olazarak bo'lib qarardi.  
- Go'zal! - dedi Miraziz jahl bilan, nima bo'lganiga tushunolmay, ammo Go'zal qaramadi.

This is not registered version of TotalDocConverter  
Bir kuni bir qaytib ketgan, xiyobonning to'ng'iga yugurib ketdi. Miraziz ortidan yugurdi.

- Go'zal! To'xta! Go'zal!

Komil esa joyidan qimirlamadi.

Oradan bir yarim oy o'tdi. Shu vaqt ichida men uch-to'rt marta Toshkentga keldim. Ammo gul do'konida Go'zalni ko'rmadim.

"Qayoqqadir akasi bilan ketgan, qachon qaytadi, bilmaymiz", deyishdi so'raganimda. Qayoqqa ketgan ekan? Tinchmikan?

Shularni o'ylab, xiyobonda o'tirar ekanman, odamlarni sinchiklab kuzatardim. Zora shular ichida uchratib qolsam, deb umid qilardim. Ammo undan darak yo'q edi.

Bir kuni kechki payt, ishlarimni bitirib, xiyobonga keldim. Favvora yoniga o'tirib gul do'koniga qarab qo'ydim. Borgim kelar, lekin "yo'q" degan gapni eshitgim kelmasdi.

Havo nihoyatda dim edi. Fontan yonida ikkita chumchuq hansirab qumga dumalab yotardi. Ro'paradagi skameykada o'rta yoshli semiz bir odam yuziga gazeta qo'yib uxlardi. Ba'zi-ba'zida uning xurragi eshitilmasa, xiyobon suv quygandek jimjit edi.

Jazirama issiqning bu yoqimsiz manzarasi menga yana Go'zalni eslatdi. Qayoqqa ketdiykin?.. Tinchmikan?.. Shu xayol bilan sekin o'rnimdan turdim.

Shu payt baland qo'ng'iroq ovoz xayolimni bo'lib yubordi.

- Kimga gul! Atirgul! Yangi gul!

Bu - Go'zal edi. Uning ovozi edi. Nazarimda, bu ovozdan qushlar ham, xiyobon ham jonlanib ketgandek bo'ldi. Kimdir sharaqlab kuldi. Kimdir taraqlatib qayoqqadir yugurdi.

- Go'zal! - dedim sevinchimni yashirmay va xiyobonning sehrli tinchligini buzib, gul do'koni tomon chopib ketdim.

1967